



# SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK XO'JALIGI

2024-YIL YANVAR-IYUN OYLARI



## QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK XO'JALIGI MAHSULOT (XIZMAT)LARI HAJMI


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiylajmi – **5 654,3 mlrd. so'mni** shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – **5 289,8 mlrd. so'mni**, o'rmon xo'jaligi – **275,8 mlrd. so'mni**, baliqchilik xo'jaligi – **88,7 mlrd. so'mni** tashkil qildi.

### 2024-yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiylajmi



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiylajmi. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.


## Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining o'sish sur'ati



- Dehqonchilik va chovachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar
- O'rmon xo'jaligi
- Baliqchilik xo'jaligi

2024-yilning yanvar-iyun oylarida dehqonchilik va chovachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlarning o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda – **103,7 %** ni (2023-yilning yanvar-iyun oylari mos ravishda 2022-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan – **105,4 %**), o'rmon xo'jaligi – **102,2 %** ni (**102,4 %**), baliqchilik xo'jaligi – **114,7 %** ni (**116,0 %**) tashkil qildi.

## Sirdaryo viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi




2024-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining **93,6 %** – dehqonchilik va chovachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar (2023-yilning yanvar-iyun oylarida **93,3 %**), **4,9 %** – o'rmon xo'jaligi (**5,3 %**), **1,6 %** – baliqchilik xo'jaligi (**1,4 %**) hissasiga to'g'ri keldi.


## Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining tumanlar kesimida taqsimlanishi, (% da)



2024-yilning dastlabki ma'lumotlariga ko'ra yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushini Sirdaryo viloyatining hududlari kesimida tahlil qilar ekanmiz, eng yuqori ulushi Boyovut tumanida (**16,9 %**), Sayxunobod tumanida (**13,6 %**), Sirdaryo tumanida (**11,8 %**), Sardoba tumanida (**11,6 %**) va Guliston tumanida (**11,5 %**) qayd etildi. Aksincha ulushi kam hududlar Oqoltin tumanida (**10,9 %**), Mirzaobod tumanida (**10,5 %**), Xovos tumani (**9,9 %**), Guliston shahar (**2,7 %**), Yangiyer (**0,4**) va Shirin shaharlarini (**0,2 %**) keltirib o'tish mumkin.



## Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining hajmi, (mlrd. so'm)




2024-yilning yanvar–iyun oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Boyovut (**957,3** mlrd. so'm), Sayxunobod (**765,6** mlrd. so'm), Sirdaryo (**669,4** mlrd. so'm), Sardoba (**657,6** mlrd. so'm), Guliston (**649,8** mlrd. so'm), Oqoltin (**618,1** mlrd. so'm), Mirzaobod (**591,5** mlrd. so'm), Xovos (**561,5** mlrd. so'm) tumanlarida va Guliston shahar (**151,2** mlrd. so'm) qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hudud Yangiyer (**21,1** mlrd. so'm) va Shirin shaharlarini (**11,2** mlrd. so'm) keltirib o'tish mumkin.

Sirdaryo viloyati ko'rsatkichidan (**103,7 %**) yuqori o'sish sur'ati Guliston shahrida (**114,4 %**), Oqoltin tumanida (**101,7 %**) esa aksincha o'sish sur'ati pastligi kuzatildi.

## Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati, (% da)

Sirdaryo viloyati ko'rsatkichidan (**103,7 %**) yuqori o'sish sur'atlari Guliston shahrida (**114,4 %**), Sardoba tumanida (**107,6 %**), Yangiyer shahrida (**105,1 %**) Sayxunobod (**103,9 %**), tumanida kuzatildi. Mirzaobod (**103,9 %**), Xovos (**103,1 %**), Boyovut (**102,9 %**), Sirdaryo (**102,5 %**), Shirin shahrida (**102,2 %**), Guliston (**102,0 %**) va Oqoltin (**101,7 %**) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.



## Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2024-yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **5 289,8 mlrd. so'mni** yoki 2023-yilning mos davriga nisbatan **103,6 %** ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – **2 168,1 mlrd. so'mni** (**104,1 %**), chorvachilik mahsulotlari – **3 009,7 mlrd. so'mni** (**103,2 %**) tashkil qildi.

## Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi

**Dehqonchilik mahsulotlari**




**41,9 %**

**Chorvachilik mahsulotlari**




**58,1 %**

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (% da)




## Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiylajmining 61,7 % – dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 29,0 % – fermer xo'jaliklariga, 9,3 % – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

## Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (% da)



2024-yilning yanvar–iyun oylari yakuniga ko'ra, ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Xovos (46,2 %) va Boyovut tumanlarida (35,9 %), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Shirin shaharda (98,5 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Guliston shahrida (27,7 %) qayd etildi. Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich Guliston shahrida (0,3 %), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng kam ulushi Xovos tumanida (50,0 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Shirin shahrida (1,5 %) qayd etildi.


## Aholi jon boshiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

2024-yilning yanvar-iyun oylarida Sirdaryo viloyatining aholi jon boshiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi joriy narxlarda **6 159,1** ming so'mni, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **101,7 %** ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi joriy narxlardagi tarmoq umumiy hajmini hududimizning hisobot davridagi o'rtacha aholisi soniga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Sirdaryo viloyati doimiy aholisining o'rtacha soni 2024-yilning yanvar-iyun oylarida **918,0** ming kishini tashkil etgan.

### Hududlar kesimida aholi jon boshiga hisoblangan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi, (ming so'm)




Hisobot davrida hududlar kesimida aholi jon boshiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atini tahlil qilar ekanmiz:

Eng yuqori o'sish sur'atini qayd etgan hududlarga Guliston shahri (**110,8 %**), Sardoba (**106,0 %**), Sayxunobod (**102,5 %**) tumanlari, Shirin shahri (**101,8 %**), Xovos tumanini (**101,2 %**) keltirib o'tishi lozim.


Aksincha o'sish sur'ati past hududlarga Guliston tumani (**99,8 %**), Oqoltin (**100,3 %**), Sirdaryo (**100,7 %**), Boyovut tumanlarini (**101,0 %**) keltirib o'tishimiz mumkin.

## DEHQONCHILIK MAHSULOTLARI YETISHTIRISH

### Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlari hajmi, (mlrd. so'm)



**Sirdaryo viloyati**  
2024-yil yanvar-iyun



*Qishloq xo'jaligidagi mahsulotlarning umumiyligi hajmidagi ulushi*

**41,9 %**



Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiyligi hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi **41,9 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Boyovut (**4 392,0** mlrd. so'm), Sayxunobod (**2 897,7** mlrd. so'm) va Xovos (**2 771,5** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Shirin (**23,4** mlrd. so'm), Yangiyer (**23,9** mlrd. so'm) va Guliston shaharlarini (**279,9** mlrd. so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Sardoba (**114,0** %) tumani, Yangiyer shahri (**111,8** %), Mirzaobod (**108,7** %) tumani va Shirin shahrida (**105,5** %) qayd etildi. Guliston (**98,2** %) shahar, Oqoltin (**101,0** %) va Sirdaryo (**102,0** %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.


## DEHQONCHILIK MAHSULOTLARI YETISHTIRISH

2024-yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan **373 383,0** tonna don (5,4 % ga), **82 456,0** tonna sabzavotlar (2,7 % ga ko'p) yetishtirildi.

### 2024-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlari

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan:					
			fermer xo'jaliklari		dehqon va tomorqa xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	Ming tonna	o'sish sur'ati % da	Ming tonna	o'sish sur'ati % da	Ming tonna	o'sish sur'ati % da	Ming tonna	o'sish sur'ati % da
<b>Donli ekinlar</b>	373,4	105,4	274,2	103,5	9,0	100,5	90,2	112,2
<b>Sabzavotlar</b>	82,5	102,7	21,5	108,6	58,4	100,6	2,6	105,7
<b>Kartoshka</b>	30,0	103,0	5,4	112,9	24,6	101,0	78,0	130,0
<b>Poliz ekinlari</b>	13,6	117,1	9,8	122,8	1,9	100,8	1,9	108,4
<b>Meva va rezavorlar</b>	11,9	107,3	6,7	112,2	5,1	100,9	0,1	134,7
<b>Uzum</b>	0,8	106,8	0,3	118,6	0,5	101,7	0,0	133,3


## 2024-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlarida xo'jalik toifalarining ulushi (% da)



2024-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, donli ekinlar yetishtirishning **73,4 %** fermer xo'jaliklari hissasiga, **2,4 %** dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **24,2 %** qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim. Shunga mos ravishda sabzavotlarning **26,1 %** fermer xo'jaliklariga, **70,8 %** dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **3,1 %** qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi. Shuningdek, kartoshkaning **18,0 %** fermer xo'jaliklariga, **81,7 %** dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **0,3 %** qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi. Poliz ekinlarining **72,0 %** fermer xo'jaliklariga, **13,6 %** dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **14,4 %** qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi. Meva va rezavorlarning **56,3 %** fermer xo'jaliklariga, **42,6 %** dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **1,1 %** qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi. Uzumning **32,7 %** fermer xo'jaliklariga, **66,8 %** dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **0,5 %** qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

## DONLI EKINLAR

Hajmi, *ming tonna*




2024-yil yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklardan **373,4** ming tonna donli ekinlar yetishtirildi.

Donli ekinlar yetishtirish ko'satkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, don ekinlari yetishtirishning eng katta hajmi – **274,2** ming tonna fermer xo'jaliklarida qayd etilganligini ta'kidlash lozim.


2024-yil yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda donli ekinlar yetishtirish hajmi 2023-yilning mos davri bilan solishtirganda **105,4 %** ni tashkil etdi.

2023-yilning mos davriga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda o'sish sur'atlari, fermer xo'jaliklarida **103,5 %**, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida **100,5 %** va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda **112,2 %** tashkil etdi.

O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi (% da)



2024-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan donli ekinlar ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, donli ekinlar yetishtirishning **73,4 %** fermer xo'jaliklari hissasiga, **2,4 %** dehqon va tomorqa xo'jaliklariga va **24,2 %** qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Fermer xo'jaliklari

Dehqon va tomorqa xo'jaliklari

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

# HUDUDLAR BO'YICHA DON YETISHTIRISH



	Hajmi, tonna	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>373 383,0</b>	<b>100,0</b>	<b>105,4</b>
Guliston sh.	360,3	0,1	53,0
Shirin sh.	58,5	0,0	102,6
Yangiyer sh.	151,0	0,0	79,3
<i>tumanlar</i>			
Oqoltin	61 810,4	16,6	101,9
Boyovut	77 428,0	20,7	104,9
Sayxunobod	46 933,3	12,6	103,0
Guliston	32 182,1	8,6	103,8
Sardoba	49 720,5	13,3	115,6
Mirzaobod	16 588,0	4,4	118,0
Sirdaryo	45 021,5	12,1	103,4
Xovos	43 129,4	11,6	103,5

## Donli ekinlar




Don ekinlarini yetishtirish bo'yicha hududlar o'ttasida peshqadamlikni Boyovut tumani egalladi. Uning, don ekinlari umumiyligi hajmidagi ulushi **20,7 %**. Shu bilan bir qatorda, yuqori ulush Oqoltin (**16,6 %**), Sardoba (**13,3 %**), Sayxunobod (**12,6 %**) Sirdaryo (**12,1 %**) va Xovos (**11,6 %**) tumanlarida qayd etildi.

Umumiy hajmidagi past ulush, Shirin (**0,02 %**) va Yangiyer (**0,04 %**) shaharlarida kuzatildi.

Yuqori o'sish sur'atlari Mirzaobod (**118,0** barobar), Sardoba (**115,6 %**), Boyovut (**104,9 %**), Guliston (**103,8 %**) va Xovos (**103,5 %**) tumanlarida qayd etildi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari pasayishi Yangiyer (**53,0 %**) va Shirin shahrida (**79,3 %**) kuzatish mumkin.

# SABZAVOTLAR

Hajmi, *ming tonna*




2024-yil yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda sabzavot yetishtirish hajmi 2023-yilning mos davri bilan solishtirganda **102,7 %** ni tashkil etdi.

2023-yilning mos davriga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda, fermer xo'jaliklarda **8,6 %**, dehqon va tomorqa xo'jaliklarda **0,6 %** va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda **5,7 %** o'sish qayd etildi.


2024-yil yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklardan **82,4** ming tonna sabzavot yetishtirildi.

Sabzavotlar yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, sabzavot yetishtirishning eng katta hajmi – **58,4** ming tonna dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etilganligini ta'kidlash lozim.

O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi (% da)



2024-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan sabzavot ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, sabzavot yetishtirishning **26,1 %** fermer xo'jaliklari hissasiga, **70,8 %** dehqon va tomorqa xo'jaliklariga va **3,1 %** qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Fermer xo'jaliklari

Dehqon va tomorqa xo'jaliklari

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



	Hajmi, tonna	Ulushi, % da	O’sish sur’ati, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>82 456,0</b>	<b>100,0</b>	<b>102,7</b>
Guliston sh.	4 225,7	5,1	100,4
Shirin sh.	225,7	0,3	107,9
Yangiyer sh.	106,6	0,1	177,7
<i>tumanlar</i>			
Oqoltin	6 792,8	8,3	101,2
Boyovut	13 079,0	15,9	102,1
Sayxunobod	11 708,8	14,2	104,2
Guliston	9 084,8	11,0	101,1
Sardoba	9 935,5	12,0	108,9
Mirzaobod	5 879,3	7,1	100,8
Sirdaryo	11 310,8	13,7	100,2
Xovos	10 107,2	12,3	103,3

## Sabzavotlar




Sabzavot yetish-tirish bo‘yicha hududlar o‘rtasida peshqadamlikni Boyovut tumani egalladi. Uning, sabzavot ekinlari umumiyligi hajmidagi ulushi **15,9 %**. Shu bilan bir qatorda, yuqori ulush Sayxunobod (**14,2 %**), Sirdaryo (**13,7 %**), Xovos (**12,3 %**) va Sardoba (**12,0 %**) va Guliston (**11,0 %**) tumanlarida qayd etildi.

Umumiyligi hajmidagi past ulush, Yangiyer (**0,1 %**) va Shirin (**0,3 %**) shaharlari kuzatildi.

Yuqori o’sish sur’atlari Yangiyer shahrida (**177,7 %**), Sardoba tumanida (**108,9 %**), Shirin shahrida (**107,9 %**), Sayxunobod (**104,2 %**) va Xovos (**103,3 %**) tumanlarida qayd etildi. O’tgan yilning shu davriga nisbatan o’sish sur’atlari pasayishi Sirdaryo (**100,2 %**) tumanida kuzatish mumkin.

# KARTOSHKA




2024-yil yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklardan **29,9** ming tonna kartoshka yetishtirildi. Kartoshka yetishtirish ko'satkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, kartoshka yetishtirishning eng katta hajmi – **24,5** ming tonna dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etilganligini ta'kidlash lozim.


2024-yil yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda kartoshka yetishtirish hajmi 2023-yilning mos davri bilan solishtirganda **103,0 %** ni tashkil etdi.

2023-yilning mos davriga nisbatan ko'sratib o'tilgan davrlarda o'sish sur'atlari, fermer xo'jaliklarda **112,9 %**, dehqon va tomorqa xo'jaliklarda **101,0 %** va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda **130,0 %** tashkil etdi.

## O'sish sur'ati



## Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi (% da)



2024-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan kartoshka ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, sabzavot yetishtirishning **18,0 %** fermer xo'jaliklari hissasiga, **81,7 %** dehqon va tomorqa xo'jaliklariga va **0,3 %** qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Fermer xo'jaliklari

Dehqon va tomorqa xo'jaliklari

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



Hajmi, tonna	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
-----------------	-----------------	----------------------------

Sirdaryo viloyati 29 962,0 100,0 103,0

Guliston sh. 668,6 2,2 102,1

Shirin sh. 197,0 0,7 103,5

Yangiyer sh. 92,1 0,3 103,5

#### tumanlar:

Oqoltin 249,8 0,8 102,9

Boyovut 6 906,7 23,0 108,4

Sayxunobod 6 943,1 23,2 102,6

Guliston 3 135,0 10,5 100,4

Sardoba 1 386,8 4,6 100,5

Mirzaobod 2 513,6 8,4 100,7

Sirdaryo 4 490,9 15,0 100,4

Xovos 3 378,4 11,3 102,7

## Kartoshka




### Kartoshka

yetishtirish bo'yicha hududlar o'tasida peshqadamlikni Sayxunobod tumani egalladi. Uning, kartoshka ekinlari umumiy hajmidagi ulushi **23,2 %**. Shu bilan bir qatorda, yuqori ulush Boyovut (**23,0 %**), Sirdaryo (**15,0 %**), Xovos (**11,3 %**) Guliston (**10,5 %**) va Mirzaobod (**8,4 %**) tumanlarida qayd etildi.

Umumiy hajmidagi past ulush, Yangiyer (**0,3 %**) va Shirin (**0,7 %**) shaharlarida kuzatildi.

Yuqori o'sish sur'atlari Boyovut tumani (**108,4 %**), Yangiyer shahri (**103,5 %**), Oqoltin (**102,9 %**), Xovos (**102,7 %**) va Sayxunobod tumanlarida (**102,6 %**) qayd etildi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari pasayishi Sirdaryo (**100,4 %**) tumanida kuzatish mumkin.

## POLIZ EKLINLARI




2024-yil yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklardan **13,6** ming tonna poliz ekinlari yetishtirildi.

Poliz yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, poliz yetishtirishning eng katta hajmi – **9,8** ming tonna fermer xo'jaliklarida qayd etilganligini ta'kidlash lozim.


2024-yil yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda poliz ekinlari yetishtirish hajmi 2023-yilning mos davri bilan solishtirganda **117,1 %** ni tashkil etdi.

2023-yilning mos davriga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda, fermer xo'jaliklarida **22,8 %**, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida **0,8 %** va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda **8,4 %** o'sish qayd etildi.

### O'sish sur'ati



### Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi (% da)



2024-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan poliz ekinlari ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, poliz yetishtirishning **72,0 %** fermer xo'jaliklari hissasiga, **13,6 %** dehqon va tomorqa xo'jaliklariga va **14,4 %** qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Fermer xo'jaliklari

Dehqon va tomorqa xo'jaliklari

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

# HUDUDLAR BO'YICHA POLIZ EKLINLARI YETISHTIRISH



	Hajmi, tonna	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Sirdaryo viloyati	13 581,0	100,0	117,1
Guliston sh.	143,7	1,1	100,3
Shirin sh.	0,5	0,0	0,0
Yangiyer sh.	0,0	0,0	0,0
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	317,5	2,3	134,5
Boyovut	850,2	6,3	120,8
Sayxunobod	2 173,5	16,0	100,4
Guliston	1 208,4	8,9	102,4
Sardoba	3 993,1	29,4	159,2
Mirzaobod	1 809,6	13,3	105,7
Sirdaryo	491,1	3,6	101,5
Xovos	2 593,4	19,1	105,2

## Poliz ekinlari




Polizlar yetishtirish bo'yicha hududlar o'ttasida peshqadamlikni Sardoba tumani egalladi. Uning, poliz ekinlari umumiy hajmidagi ulushi **29,4 %**. Shu bilan bir qatorda, yuqori ulush Xovos (**19,1 %**), Sayxunobod (**16,0 %**), Mirzaobod (**13,3 %**) Guliston (**8,9 %**) va Boyovut (**6,3 %**) tumanlarida qayd etildi.

Umumiy hajmidagi past ulush Guliston (**1,1 %**) shaharlarda kuzatildi.

Yuqori o'sish sur'atlari Sardoba (**159,2**), Oqoltin (**134,5 %**), Boyovut (**120,8 %**), Mirzaobod (**105,7 %**) va Xovos (**105,2 %**) tumanlarida qayd etildi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari pasayishi Guliston shahri (**100,3**) va Sayxunobod (**100,4 %**) tumanida kuzatish mumkin.

# MEVA VA REZOVORLAR




2024-yil yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklardan **11,9** ming tonna meva va rezovorlar yetishtirildi.

Meva va rezovorlar yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, meva yetishtirishning eng katta hajmi – **6,7** ming tonna fermer xo'jaliklarda qayd etilganligini ta'kidlash lozim.

2024-yil yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda meva va rezovorlar yetishtirish 2023-yilning mos davri bilan solishtirganda **107,3 %** ni tashkil etdi.


2023-yilning mos davriga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda, fermer xo'jaliklarda **12,2 %**, dehqon va tomorqa xo'jaliklarda **0,9 %** va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda **34,7 %** o'sish qayd etildi.

O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning

xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi (% da)



2024-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan meva va rezovorlar ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, sabzavot yetishtirishning **56,3 %** fermer xo'jaliklari hissasiga, **42,6 %** dehqon va tomorqa xo'jaliklariiga va **1,1 %** qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Fermer xo'jaliklari

Dehqon va tomorqa xo'jaliklari

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



	Hajmi, tonna	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Sirdaryo viloyati	11 941,0	100,0	107,3
Guliston sh.	103,9	0,9	104,7
Shirin sh.	8,3	0,1	102,5
Yangiyer sh.	74,9	0,6	123,8
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	469,9	3,9	101,6
Boyovut	3 287,3	27,5	101,4
Sayxunobod	1 239,5	10,4	119,4
Guliston	1 193,5	10,0	108,0
Sardoba	944,4	7,9	107,5
Mirzaobod	972,0	8,1	101,3
Sirdaryo	889,4	7,5	101,7
Xovos	2 757,9	23,1	114,7


## Meva va rezovorlar



Meva va rezovorlar yetishtirish bo'yicha hududlar o'ttasida peshqadamlikni Boyovut tumani egalladi. Uning, meva ekinlari umumiyligi ulushi **27,5 %**. Shu bilan bir qatorda, yuqori ulush Xovos (**23,1 %**), Sayxunobod (**10,4 %**), Guliston (**10,0 %**) Mirzaobod (**8,1 %**) va Sardoba (**7,9 %**) tumanlarida qayd etildi.

Umumiy hajmidagi past ulush, Shirin (**0,1 %**) va Yangiyer shaharlari (**0,4 %**) kuzatildi.

Yuqori o'sish sur'atlari Yangiyer shahri (**123,8**), Sayxunobod (**119,4 %**), Xovos (**114,7 %**), Guliston (**108,0 %**) va Sardoba tumanlarida (**107,5 %**) qayd etildi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati Mirzaobod tumanida (**101,3 %**) boshqalarga nisbatan pastligini kuzatish mumkin.




2024-yil yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklardan **802,0** tonna uzum yetishtirildi.

Uzum yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, uzum yetishtirishning eng katta hajmi – **536,0** tonna dehqon va tomorqa xo'jaliklarida qayd etilganligini ta'kidlash lozim.

2024-yil yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda uzum yetishtirish hajmi 2023-yilning mos davri bilan solishtirganda **106,8 %** ni tashkil etdi.


2023-yilning mos davriga nisbatan ko'rsatib o'tilgan davrlarda o'sish sur'atlari, fermer xo'jaliklarida **18,6 %**, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida **1,7 %** va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda **33,3 %** tashkil etdi.

## O'sish sur'ati



## Ishlab chiqarilgan mahsulotning

### xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi (% da)



2024-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan uzum ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, sabzavot yetishtirishning **32,7 %** fermer xo'jaliklari hissasiga, **66,8 %** dehqon va tomorqa xo'jaliklariga va **0,5 %** qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Fermer xo'jaliklari

Dehqon va tomorqa xo'jaliklari

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

# HUDUDLAR BO'YICHA UZUM YETISHTIRISH



	Hajmi, tonna	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>802,0</b>	<b>100,0</b>	<b>106,8</b>
Guliston sh.	0,0	0,0	0,0
Shirin sh.	0,0	0,0	0,0
Yangiyer sh.	0,0	0,0	0,0
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	0,0	0,0	0,0
Boyovut	188,4	23,4	101,3
Sayxunobod	18,4	2,3	102,2
Guliston	202,8	25,3	104,3
Sardoba	19,3	2,4	100,5
Mirzaobod	114,8	14,3	103,0
Sirdaryo	79,8	10,0	101,0
Xovos	178,5	22,3	125,0

## Uzum




Uzum yetishtirish bo'yicha hududlar o'ttasida peshqadamlikni Guliston tumani egalladi. Uning, uzum ekinlari umumiyligi hajmidagi ulushi **25,3 %**. Shu bilan bir qatorda, yuqori ulush Boyovut (**23,4 %**), Xovos (**22,3 %**), Mirzaobod (**14,3 %**) Sirdaryo (**10,0 %**) va Sardoba (**2,4 %**) tumanlarida qayd etildi. Umumiyligi hajmidagi past ulush, Sayxunobod (**2,3 %**) tumanida kuzatildi.

Yuqori o'sish sur'atlari Xovos (**125,0 %**), Guliston (**104,3 %**), Mirzaobod (**103,0 %**), Sayxunobod (**102,2 %**) va Boyovut (**101,3 %**) tumanlarida qayd etildi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari pasayishi Sardoba (**100,5 %**) tumanida kuzatish mumkin.

# CHORVACHILIK MAHSULOTLARI

## Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlari hajmi, (mlrd. so'm)



## Sirdaryo viloyati 2024-yil yanvar-iyun



**58,1 %**



Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiyligi hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi **58,1 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Boyovut (**470,8** mlrd. so'm), Sayxunobod (**418,4** mlrd. so'm) va Guliston tumanlarida (**388,3** mlrd. so'm) qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Shirin (**7,0** mlrd. so'm) va Yangiyer (**16,2** mlrd. so'm), Guliston shaharlarini (**107,1** mlrd. so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Guliston shahri (**119,8 %**), Sayxunobod tumani (**104,5 %**), Yangiyer shahrida (**103,7 %**) qayd etildi. Shirin shahrida (**101,2 %**), Guliston (**101,6 %**), Mirzaobod (**101,8 %**) va Boyovut tumanlarida (**102,0 %**) esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.


## 2024-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan:					
			fermer xo'jaliklari		dehqon va tomorqa xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	ming tonna	o'sish sur'ati % da	ming tonna	o'sish sur'ati % da	ming tonna	o'sish sur'ati % da	ming tonna	o'sish sur'ati % da
Go'sht (tirik vaznda)	36,3	104,9	1,7	115,4	32,3	100,5	2,3	2,3 m.
Sut	184,8	102,0	15,0	106,9	160,8	100,4	9,0	129,7
Tuxum (mln. dona)	86,4	103,8	7,8	113,8	60,3	100,1	18,3	113,6
Jun, tonna	340,0	109,0	70,0	125,0	252,0	102,0	18,0	2,0 m.
Baliq, tonna	4230,5	113,6	2414,3	106,0	79,1	109,9	1737,1	126,3

2024-yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda **36,3** ming t. go'sht, **184,8** ming t. sut, **86,4** mln. dona tuxum, **340,0** tonna jun va **4 230,5** tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan – **104,9 %** ni, sog'ib olingan sut – **102,0 %** ni, olingan tuxum – **103,8 %** ni, qirqib olingan jun – **109,0 %** ni hamda ovlangan baliqlar – **113,6 %** ni tashkil qildi.

## 2024-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar



2024-yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiyoj hajmidan **4,6 %** fermer xo'jaliklari hissasiga, **89,1 %** dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **6,4 %** qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim. Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning **8,1 %** fermer xo'jaliklari, **87,0 %** dehqon va tomorqa xo'jaliklari, **4,9 %** qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, olingan tuxumning **9,0 %** fermer xo'jaliklariga, **69,8 %** dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **21,2 %** qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi. Shuningdek, qirqib olingan junning **20,6 %** fermer xo'jaliklariga, **74,1 %** dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **5,3 %** qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi. O'z navbatida, ovlangan baliqlarning **57,1 %** fermer xo'jaliklariga, **1,9 %** dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **41,1 %** qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.

# GO'SHT (TIRIK VAZNDA) GO'SHT

## Hajmi, ming tonna




